

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikramova Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTAR, INSTITUTLAR, RESURLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	



TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich
Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, DSc
E-mail: b.d.ollanazarov@gmail.ru

Annotatsiya. Turistik xizmatlar sohasi (TXS)ning investitsion jozibadorligida kutilayotgan va amalda erishilgan natijalar o'rtasida yuzaga keladigan tafovutlar investitsion paradokslar nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma'lumotlar tahlili asosida investitsion paradokslarning asosiy shakllari tizimlashtirilib, ularni aniqlash mezonlari belgilangan. Xorazm viloyati misolida investitsiyalarning hududiy konsentratsiyasi, mavsumiy bandlik, moliyaviy qaytim, davlat ko'magiga bog'liqlik, shuningdek, turistik rivojlanishning madaniy meros va tabiiy muhitga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalari asosida investitsion holatni kompleks baholash, loyihalarni ko'p mezonli saralash hamda hududiy investitsiya portfelini muvozanatli shakllantirish jarayonlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi uch bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan.

Kalit so'zlar: turistik xizmatlar, investitsion jozibadorlik, investitsion paradoks, hududiy konsentratsiya, moliyaviy qaytim, mavsumiylik, davlat ko'magi, madaniy meros, tabiiy muhit, Xorazm viloyati.

Аннотация. Исследованы расхождения между ожидаемыми и фактически достигнутыми результатами инвестиционной привлекательности сферы туристских услуг (СТУ) с позиции инвестиционных парадоксов. На основе анализа научной литературы и официальных данных систематизированы основные формы инвестиционных парадоксов и определены критерии их выявления. На примере Хорезмской области оценены территориальная концентрация инвестиций, сезонная занятость, финансовая отдача, зависимость от государственной поддержки, а также влияние развития туризма на культурное наследие и природную среду. На основе результатов исследования предложен трёхэтапный организационно-экономический механизм, объединяющий комплексную оценку инвестиционного состояния, многокритериальный отбор проектов и сбалансированное формирование территориального инвестиционного портфеля.

Ключевые слова: туристские услуги, инвестиционная привлекательность, инвестиционный парадокс, территориальная концентрация, финансовая отдача, сезонность, государственная поддержка, культурное наследие, природная среда, Хорезмская область.

Abstract. Discrepancies between expected and actual outcomes associated with investment attractiveness in the tourism services sector are examined from the perspective of investment paradoxes. Based on an analysis of scholarly literature and official data, the main forms of investment paradoxes are systematized, and criteria for their identification are established. Using the Khorezm Region as a case study, the research assesses the spatial concentration of investment, seasonal employment, financial returns, dependence on government support, and the impact of tourism development on cultural heritage and the natural environment. Based on the findings, a three-stage organizational and economic mechanism is proposed that integrates a comprehensive assessment of investment conditions, multi-criteria project selection, and the balanced formation of a regional investment portfolio.

Keywords: tourism services, investment attractiveness, investment paradox, spatial concentration, financial returns, seasonality, government support, cultural heritage, natural environment, Khorezm Region.

KIRISH

TXSning investitsion jozibadorligi hududning turistik salohiyati, transport va servis infratuzilmasi, tadbirkorlik muhiti hamda davlat rag'batlari ta'sirida shakllanadi. Biroq ushbu imkoniyatlar investitsiyalarning hududiy mutanosibligi, iqtisodiy daromadliligi va ijtimoiy-ekologik barqarorligini har doim ham bir xil darajada ta'minlamaydi. Kutilayotgan nazariy natijalar bilan amalda kuzatilayotgan holatlar o'rtasidagi mazkur nomuvofiqlik tadqiqotda *investitsion jozibadorlik paradoksi* sifatida talqin etiladi.



Xorazm viloyatining turistik salohiyati Ichan qal'aning UNESCO maqomi, Xiva shahrining xalqaro nufuzi hamda boy tarixiy-madaniy merosiga asoslanadi. Biroq infratuzilmaning Xiva–Urganch shaharlari yo'nalishida jamlanishi, tumanlardagi hududiy tafovutlar, talabning mavsumiyligi va **madaniy meros obyektlaridan foydalanish intensivligining ortishi** investitsiyalar samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "2024 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-394-sonli¹ qarorida 2024–2026-yillarda Xorazm viloyatiga keluvchi xorijiy turistlar sonini 1,0 mln. dan 1,8 mln. ga, ichki turistlarni 4,0 mln. dan 5,0 mln. ga, turistik xizmatlar eksportini esa 350 mln. dan 700 mln. AQSH dollariga yetkazish belgilangan [1]. Mazkur maqsadlar investitsiyalar hajmini oshirish bilan birga, ularning moliyaviy barqarorligi, hududiy taqsimoti va madaniy merosga ta'sirini kompleks baholashni talab etadi. Shu bois tadqiqotda investitsion jozibadorlik paradokslarining Xorazm viloyatida namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda TXSning investitsion jozibadorligi moliyaviy samaradorlik, kapitalning hududiy taqsimoti, infratuzilma va institutsional muhit uyg'unligida shakllanuvchi kompleks kategoriya sifatida talqin etiladi. Nazariy kutilmalar bilan amaliy natijalar o'rtasidagi barqaror tafovutlar esa investitsion jozibadorlik paradokslarini yuzaga keltiradi.

Shamakova investitsiya loyihalarini moliyaviy ko'rsatkichlar hamda ijtimoiy-ekologik xatarlar asosida kompleks baholashni taklif etadi [2]. Xudiyakova va Sokolova reytinglar bilan investor qarorlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni [3], Varivoda, Ashirova va Alov kapitalning turistik markazlarda jamlanishini [4; 5], Gaitukiyev esa infratuzilmaviy va institutsional cheklovlarni asoslagan [6]. Chicherova davlat ko'magini loyiha natijalariga bog'lash zarurligini [7], Lebedeva hamda Fyodorovalar infratuzilmaviy muvofiqlikning ahamiyatini ko'rsatgan [8; 9].

Torres investitsiya jalb etilishini loyihalarni tayyorlash va mablag'larni o'zlashtirish salohiyati bilan [10], Suárez-Tostado esa uning samarasini kapitalning funksional yo'nalishi bilan bog'laydi [11]. Boshqa tadqiqotlarda investitsiyalarning bandlik, daromadlar taqsimoti, hududiy muvozanat va ekologik barqarorlikka ta'siri yoritilgan [12–16]. O'zbekistonga oid ilmiy manbalarda madaniy merosni asrash, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy biznes ishtirokini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [17–18].

Mazkur ilmiy qarashlar va ulardan kelib chiqadigan investitsion jozibadorlik paradokslari 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval
Ilmiy yondashuvlar va investitsion jozibadorlik paradokslari²

Ilmiy manba	Asosiy natija	Paradoksal bog'lanish
Shamakova va b. [2]	Moliyaviy qaytim va xatarlarni kompleks baholash	Tashqi jozibadorlik – real qaytim
Xudiyakova, Sokolova [3]	Reyting baholarining turlicha natija berishi	Reyting – investor qarori
Varivoda; Ashirova, Alov [4; 5]	Kapital konsentratsiyasi va salohiyat–natija tafovuti	Markazlashuv – hududiy muvozanat
Chicherova va b. [7]	Davlat ko'magining investitsion faollikka ta'siri	Rag'bat – moliyaviy mustaqillik
Lebedeva; Fyodorova va b. [8; 9]	Infratuzilma tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi	Turistik resurs – infratuzilmaviy tayyorlik
Torres va b. [10]	Institutsional salohiyatning moliyalashtirishdagi o'rni	Hudud ehtiyoji – mablag'larni o'zlashtirish
Suárez-Tostado va b. [11]	Samaraning investitsiya yo'nalishiga bog'liqligi	Kapital hajmi – iqtisodiy samara
Castilho, Fuinhas; Sánchez-Bayón, Daumann [12; 14]	Ijtimoiy taqsimot va turistik bosim oqibatlari	Turistik o'sish – mahalliy farovonlik
Karimov va b.; Ollanazarov [17–18]	Meros barqarorligi va mahalliy qiymat yaratish	Investitsiya – hududiy iqtisodiy naf

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "2024 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-394-sonli qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7223758>

2 Manba: [2–18] asosida muallif ishlanmasi.



1-jadvalda umumlashtirilgan adabiyotlar tahlili mazkur nomuvofiqliklarning, asosan, alohida yo'nalishlarda o'rganilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularni o'zaro bog'langan paradokslar tizimi sifatida baholash va hududiy boshqaruv mexanizmlariga integratsiyalash yo'nalishida tadqiqotlarni yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Shundan kelib chiqib, **TXS investitsion jozibadorligi paradoksini** — *yuqori turistik salohiyat, kapital oqimi, investitsion reyting yoki davlat rag'batlarining loyihalar moliyaviy barqarorligi, investitsiyalarning hududiy mutanosibligi, yil davomidagi samarali bandlik hamda barqaror mahalliy iqtisodiy-ijtimoiy natijalar bilan uyg'unlashmasligi holati sifatida ta'riflashimiz mumkin bo'ladi.*

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika, UNESCO materiallari va ilmiy manbalarga asoslangan holda ma'lumotlar tizimli, institutsional, kontent va qiyosiy tahlil usullari yordamida o'rganildi. Hududiy jamlanish darajasi (CR₂), moliyaviy barqarorlik esa sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik me'yori (IRR), moliyalashtirish manbalari qiymatining ulushlar bo'yicha o'rtachalashtirilgan darajasi (WACC) hamda qarzga xizmat ko'rsatishni qoplash koeffitsiyenti (DSCR) orqali baholandi. Operatsion samaradorlikni aniqlashda mavjud xona hisobiga to'g'ri keladigan daromad (RevPAR), mavsumiy tebranishlarni o'lchashda variatsiya koeffitsiyenti (CV), davlat ko'magiga bog'liqlikni baholashda davlat ko'magiga qaramlik darajasi (SDR), paradoksning umumiy holatini aniqlashda esa investitsion jozibadorlik paradoksi indeksi (IJPI) qo'llanildi. Natijalar rasmiy dalillar, hisob-kitoblar va tekshirilishi lozim bo'lgan ilmiy farazlarga ajratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida TXS investitsion jozibadorligiga xos sakkizta paradoksal holat aniqlanib, ularning mazmuni va yuzaga kelish sabablari 2-jadvalda tizimlashtirildi.

2-jadval ma'lumotlari investitsion jozibadorlik paradokslari mavjud imkoniyatlardan ko'zlangan darajada samarali foydalanish imkoniyatlari to'liq ro'yobga chiqmagan holatlarda yuzaga kelishini ko'rsatadi. Infratuzilmaviy nomutanosiblik mavsumiylikning kuchayishiga, investitsiya qaytimining pasayishiga va davlat ko'magiga ehtiyojning ortishiga olib kelishi mumkin. Imtiyozlarning rivojlangan hududlarda jamlanishi esa investitsiya resurslarining aynan shu hududlarda yanada ko'proq to'planishiga sabab bo'ladi.

2-jadval
TXS investitsion jozibadorligi paradokslarining tasnifi³

Kod	Paradoks turi	Qarama-qarshi holat	Asosiy sabab
P1	Salohiyat – kapital	Salohiyat yuqori, xususiylar investitsiyalar past	Axborot, kafolat va tayyor loyihalar yetishmasligi
P2	Investitsiya – qaytim	Kapital ortadi, ammo NPV, IRR va DSCR yetarli emas	Talab prognozidagi xatolar va yuqori xarajatlar
P3	Jozibadorlik – hududiy muvozanat	Kapital rivojlangan markazlarda jamlanadi	Brend va tayyor infratuzilma afzalligi
P4	Taklif sig'imi – mavsumiy bandlik	Obyektlar ko'payadi, past mavsumdagi bandlik pasayadi	Turistik mahsulotlarning yetarli diversifikatsiya qilinmaganligi
P5	Obyekt – infratuzilma	Obyekt mavjud, xizmatlar zanjiri to'liq ishlamaydi	Yo'l, transport, suv, internet va servis nomuvofiqligi
P6	Davlat ko'magi – moliyaviy mustaqillik	Imtiyozlar mavjud, loyiha subsidiyasiz barqaror emas	Ko'makning natijaviy mezonlarga bog'lanmaganligi
P7	Turistik o'sish – madaniy meros barqarorligi	Turistlar ko'payadi, meros va tabiiy muhitga ta'sir ortadi	Qabul qilish sig'imi va HIAning hisobga olinmagani
P8	Reyting – real investitsiya qarori	Reyting yuqori, moliyaviy bitimlar kam	Reyting va investor mezonlarining farqlanishi

Izoh: HIA - madaniy merosga ta'sirni baholash

Xorazm viloyatida joylashtirish vositalari soni 2019-yildagi 73 tadan 2025-yilda 115 taga oshgan [19]. Biroq 2024-yilda faoliyat yuritgan 100 ta obyektning 57 tasi Xiva shahrida, 27 tasi esa Urganch shahrida joylashgan [20]:

$$CR_2 = ((57 + 27) / 100) \times 100 = 84 \%$$

3 Manba: ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida muallif ishlanmasi.



Natija joylashtirish vositalarining 84 foizi ushbu ikki shaharda jamlanganini ko'rsatadi. Mazkur koeffitsiyent faqat obyektlar sonining hududiy taqsimotini ifodalaydi. Kapital konsentratsiyasini to'liq baholash uchun loyihalar qiymati, xona sig'imi, daromad va bandlik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarur.

Hisob-kitob joylashtirish obyektlarining, asosan, Xiva va Urganch shaharlarida jamlanganini ko'rsatadi. Biroq CR₂ kapitalning qiymat, xona sig'imi, daromad va bandlik bo'yicha hududiy konsentratsiyasini to'liq ifodalamaydi. Uni aniq baholash uchun har bir loyiha kesimidagi tegishli ma'lumotlar talab etiladi.

UNESCO materiallarida Ichon qal'ada namlik, sho'rlanish, termittlar, sanitariya va restavratsiya salohiyati bilan bog'liq holatlar qayd etilgan [21; 22; 23]. Shu sababli turistik o'sish tashriflar soni bilangina emas, balki meros obyektlarining saqlanish holati va hududning zararsiz qabul qilish sig'imi asosida ham baholanishi lozim.

Paradokslarni aniqlash uchun taklif etilayotgan ko'rsatkichlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadvaldagi chegara qiymatlar qat'iy me'yor emas, balki loyihalarni dastlabki baholash va ehtimoliy xatarlarni aniqlash mezonlaridir. Ular loyiha xususiyati, moliyalashtirish qiymati va hududiy talabning mavsumiyligiga muvofiq moslashtirilishi lozim.

3-jadval
Investitsion jozibadorlik paradokslarini aniqlash ko'rsatkichlari⁴

Kod	Ko'rsatkich	Paradoks signali	Ma'lumot manbai
P1	Salohiyatni ro'yobga chiqarish tafovuti	Salohiyat yuqori, moliyaviy bitimlar past	Statistika va investorlar reyestri
P2	NPV ₀ , IRR ₀ -WACC, DSCR	NPV ₀ < 0; IRR ₀ < WACC; DSCR < 1,2	TIA, bank va soliq ma'lumotlari
P3	CR ₂ , HHI, tumanlar ulushi	CR ₂ > 60 foiz yoki HHI o'sishi	Loyihalarning hududiy reyestri
P4	Mavsumiy CV, bandlik, RevPAR	Past mavsum bandligi 35 foizdan kam	"E-mehmon" va PMS
P5	Infratuzilmaviy tayyorlik indeksi	Eng zaif bo'g'in natijani cheklaydi	Yo'l, suv, transport va internet ma'lumotlari
P6	SDR va ΔNPV	NPV ₁ ≥ 0, NPV ₀ < 0	Budjet va loyiha ma'lumotlari
P7	Tashriflar sig'imi, suv, chiqindi va HIA	Tashriflar maqbul darajadan oshadi yoki OUVga ta'sir aniqlanadi	UNESCO, HIA va ekologik ma'lumotlar
P8	Reyting – qaror tafovuti	Reyting ortadi, bitimga aylanish darajasi pasayadi	Reyting va investorlar CRM tizimi

Izoh: HHI - bozor yoki hududiy jamlanish darajasini baholovchi Herfindal-Hirshman indeksi; PMS - joylashtirish obyektlarini boshqarish tizimi; CRM - mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi; TIA - turizm faoliyatining hududga ta'sirini baholash.

Davlat ko'magiga bog'liqlik darajasi quyidagicha baholanadi:

$$SDR = ((S + PV(TB)) / CAPEX) \times 100 \%$$

bu yerda: S – to'g'ridan-to'g'ri subsidiya; PV(TB) – soliq va boshqa imtiyozlarning joriy qiymati; CAPEX – kapital xarajatlar.

SDRning yuqori qiymati loyihaning davlat ko'magiga kuchli moliyaviy bog'liqligini bildiradi, biroq uning samaradorligini to'liq ifodalamaydi. Yakuniy baholashda yaratilgan qo'shimcha iqtisodiy samara, doimiy bandlik va mahalliy aholi daromadlaridagi o'zgarishlar ham hisobga olinishi lozim.

To'liq ma'lumotlar mavjud bo'lganda paradoks ko'rsatkichlarini quyidagi integral indeksda umimlashtirish mumkin bo'ladi:

$$IJPI_i = \sum_{j=1}^m w_j z_{ij}, \text{ bunda } \sum_{j=1}^m w_j = 1$$

bu yerda: z_{ij} – normallashtirilgan tafovut ko'rsatkichi, w_j – uning vazni.

Indeksning ortishi tashqi jozibadorlik bilan amaldagi natijalar o'rtasidagi nomuvofiqlik kuchayganini anglatadi. Mazkur tadqiqotda birlamchi loyiha ma'lumotlari to'liq shakllanmaganligi sababli IJPI metodik taklif sifatida berildi.

Xorazm viloyati bo'yicha aniqlangan holatlar dalillarning tekshirilish darajasiga ko'ra 4-jadvalda umimlashtirilgan.

4 Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif ishlanmasi.



4-jadval
Xorazm viloyatidagi investitsion paradokslarga oid dalillar⁵

Kod	Aniqlangan holat	Dalil darajasi	Ilmiy talqin
P1	Investor qiziqishidan bitimgacha bo'lgan jarayon bo'yicha ma'lumotlar to'liq ochiq qolmagan	C – ilmiy faraz	Investorlar monitoringini rivojlantirish zarur
P2	Loyihalar bo'yicha NPV, IRR va DSCR ma'lumotlari ochiq shaklda to'liq mavjud emas	C – ilmiy faraz	Ikki ssenariyli TIA talab etiladi
P3	Joylashtirish vositalarining 84 foizi Xiva va Urganch shaharlarida joylashgan	B – hisob-kitob	Yuqori hududiy konsentratsiya signali
P4	Oylik bandlik bo'yicha tumanlar kesimidagi ma'lumotlar to'liq ochiq qolmagan	C – ilmiy faraz	Oylik statistik panelni shakllantirish zarur
P5	Rasmiy dasturda infratuzilmaviy choralar belgilangan	A – rasmiy fakt	Infratuzilmaviy rivojlantirish zarurati e'tirof etilgan
P6	Mehmonxona xonalari uchun subsidiya mavjud	A – rasmiy fakt	Moliyaviy bog'liqlik loyiha kesimida tekshirilishi kerak
P7	UNESCO meros obyektiga ta'sir qiluvchi holatlarni qayd etgan	A – rasmiy fakt	Meros monitoringini yanada takomillashtirish zarur
P8	Reytingning real bitimga aylanish darajasi bo'yicha ma'lumotlar to'liq ochiq qolmagan	C – ilmiy faraz	Yagona investitsion axborot tizimini shakllantirish talab etiladi

4-jadvalga ko'ra, joylashtirish obyektlarining hududiy jamlanishi hisob-kitoblar asosida, infratuzilmaviy rivojlantirish zarurati, davlat subsidiyalari hamda madaniy meros obyektlarini saqlash bilan bog'liq masalalar esa rasmiy manbalar asosida tasdiqlangan. Boshqa paradokslarni ishonchli baholash uchun loyihalar kesimidagi qo'shimcha moliyaviy va operatsion ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalari Xorazm viloyatidagi investitsion jarayonlarning kapital hajmi bilan birga uning hududiy taqsimoti, tarkibiy sifati va amaliy natijadorligiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bois tumanlarda yangi obyektlar qurish yo'l, transport, suv, sanitariya, internet, gidlik, marketing va xavfsizlik xizmatlarini qamrab oluvchi yagona investitsiya paketi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aniqlangan paradokslarni yumshatish uchun quyidagi bosqichlarni birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etiladi: 1) hududdagi investitsion holatni kompleks baholash va paradoksal tafovutlarning hududiy ko'rinishini aniqlash; 2) loyiha tashabbuslarini ko'p mezonli saralash hamda ularning muqobil ssenariylardagi barqarorligini sinash; 3) hududlar kesimida muvozanatli investitsiya portfelini shakllantirish, moliyalashtirish manbalarini belgilash va loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Mazkur bosqichlar uzluksiz axborot almashinuvi asosida bog'lanib, har bir bosqich natijasi keyingi qarorlarni belgilaydi. Monitoring xulosalari esa baholash mezonlari, loyiha filtrlari va moliyalashtirish shartlarini muntazam takomillashtirishga xizmat qiladi.

I bosqich: hududdagi investitsion holatni kompleks baholash. Xorazm viloyatida TXS investitsiyalarini monitoring qilish va tahlil etish markazini tashkil etish taklif qilinadi. Markaz loyihalarning joylashuvi, moliyalashtirish manbalari, davlat ko'magi, mavsumiy bandlik, tunovlar, mahalliy xaridlar, ish o'rinlari, resurslar sarfi, madaniy merosga ta'sir hamda investor qiziqishining amaliy bitimga aylanishi haqidagi ma'lumotlarni yagona raqamli reyestrda jamlaydi. Ushbu baza asosida paradokslarning hududiy ko'rinishi, kapital konsentratsiyasi va infratuzilmaviy xatarlar baholanadi.

II bosqich: investitsiya loyihalarini ko'p mezonli baholash. Loyihalar quyidagi mezonlar majmui asosida saralanadi: **moliyaviy mezonlar** – NPV, IRR, WACC, DSCR, investitsiyaning qoplanish muddati va mavsumiy stress-test natijalari; **hududiy-ijtimoiy mezonlar** – mahalliy xaridlar ulushi, doimiy ish o'rinlari, xotin-qizlar va yoshlar bandligi, kichik biznes bilan kooperatsiya hamda past mavsumda qo'shimcha talab yaratish salohiyati; **madaniy meros va ekologik mezonlar** – madaniy merosga ta'sirni baholash (HIA), ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) talablariga muvofiqlik, suv va energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, obyektning turistik oqimni xavfsiz qabul qilish sig'imi hamda mahalliy aholi manfaatlariga ta'sir.

Loyiha moliyaviy barqarorlik, hudud uchun qo'shimcha iqtisodiy samara, ijtimoiy manfaat hamda madaniy-ekologik muvofiqlikni birgalikda ta'minlagan taqdirdagina keyingi bosqichga o'tkaziladi.

5 Manba: ilmiy va rasmiy manbalar ma'lumotlarini tadqiq etish asosida muallif hisob-kitoblari.



III bosqich: hududiy investitsiya portfelini shakllantirish va amalga oshirish. Saralangan loyihalar Xivaning tarixiy-madaniy hududi, Urganch shahrining transport-servis markazi va viloyat tumanlarining ixtisoslashgan turistik yo'nalishlarini qamrab oluvchi muvozanatli investitsiya portfeliga birlashtiriladi. Unda loyihalarning ustuvorligi, moliyalashtirish manbalari, mas'ul subyektlari va natijaviy ko'rsatkichlari belgilanadi. Mazkur boshqaruv vositalari va ularni amalga oshirish tartibi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Paradokslarni yumshatishning tashkiliy-iqtisodiy vositalari

Boshqaruv vositasi	Mas'ul subyektlar	Natijaviy ko'rsatkich	Muddat
Hududiy monitoring-tahlil markazi	Hokimlik, Statistika boshqarmasi, Turizm qo'mitasi	Raqamli reyestr va bitimga aylanish darajasi	0–6 oy
Ikki ssenariyli moliyaviy baholash	Investor, bank, loyiha ofisi	NPV ₀ , IRR ₀ , DSCR va stress-test	Muntazam
Natijaga bog'langan subsidiya	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Turizm qo'mitasi	Xususiy moliyalashtirish, past mavsum bandligi, mahalliy xaridlar	Loyiha davomida
Ichan qal'ada tashriflarni tartibga solish	Madaniy meros agentligi, Ichan qal'a direksiyasi, DMO	HIA, tartibga solingan kirish va OUV holati	0–12 oy
Tuman turistik yo'nalishlari	Hokimlik, DXSh va xususiy sektor	Tumanlar ulushi, tunovlar va CR ₂ ning pasayishi	1–3 yil
Infratuzilmaviy tayyorlikni baholash	Yo'l, transport, suv va raqamli infratuzilma tashkilotlari	Tayyorlik indeksining o'sishi	0–12 oy
Past mavsum xizmatlari	DMO, biznes va ta'lim muassasalari	Noyabr–mart oylaridagi bandlik	Har yili
Hududiy manfaatlar majburiyati	Investor, mahalla va klaster	Mahalliy xaridlar va doimiy bandlik	Loyiha davomida
Ssenariyli monitoring	Ilmiy kengash va manfaatdor tomonlar	Mezonlarning yillik yangilanishi	Har yili

Izoh: DMO - turistik destinatsiyani boshqarish tashkiloti; OUV - obyektning alohida umumbashariy qiymati.

5-jadvalda har bir boshqaruv vositasi mas'ul subyekt, o'lchanadigan natija va amalga oshirish muddati bilan bog'langan bo'lib, bu ijro intizomi va javobgarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat ko'magining bir qismini loyiha ishga tushirilganidan 24–36 oy o'tgach, past mavsumdagi bandlik, xususiy moliyalashtirish, mahalliy xaridlar, doimiy ish o'rinlari, resurs tejamkorligi va merosni muhofaza qilish natijalari tasdiqlangandan so'ng ajratish maqsadga muvofiq.

Mexanizm komplekslik, o'lchanuvchanlik, ishonchli axborot, hududiy moslashuvchanlik, moliyaviy barqarorlik, ochiqlik hamda madaniy-ekologik mas'uliyat tamoyillariga asoslanishi lozim. Uni amalga oshirishda hududiy manfaatlar muvozanati, davlat ko'magining qo'shimcha samarasi, manfaatdor tomonlar hamkorligi, xatar va manfaatlarning oqilona taqsimoti hamda natijalar uchun javobgarlik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tamoyillar Xorazm viloyatining hududiy xususiyatlariga quyidagicha moslashtirilishi mumkin.

Xivaning tarixiy-madaniy hududida yangi qurilishlardan ko'ra mavjud binolardan tarixiy qiyofani saqlagan holda foydalanish, suv va sanitariya ta'minoti, chiqindilarni boshqarish hamda restavratsiya salohiyatini yaxshilash ustuvor bo'lishi lozim. Natijadorlik yangi xonalar soni bilan emas, balki Ichan qal'a qadriyatlarini asragan holda har bir tashrifdan yaratiladigan hududiy iqtisodiy samara bilan baholanishi zarur.

Urganch transport-servis markazi aeroport, temir yo'l, logistika, ishbilarmonlik, tibbiy va ta'lim xizmatlarini o'zaro bog'lash orqali yil davomidagi talabni barqarorlashtirishi hamda Xivadagi turistlar oqimini hududiy qayta taqsimlashga xizmat qilishi kerak.

Viloyat tumanlarida Qalajiq qal'asi negizida tarixiy-madaniy, Qorako'l hududida ekologik, Amudaryo bo'yida rekreatsion, qishloqlarda agro-gastronomik, hunarmandchilik markazlarida etnomadaniy va ziyorat maskanlarida diniy-ma'rifiy turizmni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Ushbu yo'nalishlarda alohida joylashtirish obyektlarini emas, balki transport, sanitariya, internet, turistik axborot, gidlik, marketing va xavfsizlik xizmatlarini birlashtiruvchi kompleks infratuzilmaviy paketlarni moliyalashtirish yuqori samara beradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot TXS investitsion jozibadorligini baholashda turistik salohiyat, davlat imtiyozlari va tashriflar soni bilangina cheklanish yetarli emasligini ko'rsatdi. Bunda investitsiyalarning hududiy taqsimoti, loyihalarning davlat ko'magisiz moliyaviy barqarorligi, mavsumiy bandlik, mahalliy iqtisodiy samara hamda madaniy-ekologik ta'sir kompleks tarzda hisobga olinishi lozim.

Xorazm viloyatida CR₂ koeffitsiyentining 84 foizga tengligi joylashtirish obyektlarining Xiva va Urganch shaharlarida yuqori darajada jamlanganini ko'rsatadi. Biroq kapital hajmi, daromad, bandlik va loyiha samaradorligi bo'yicha yakuniy baho berish uchun loyiha kesimidagi qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish zarur.

Tadqiqotda TXS investitsion jozibadorligi paradoksining mazmuni aniqlashtirilib, uning sakkizta shakli tasniflandi. Fakt – hisob – ilmiy faraz tamoyiliga asoslangan baholash yondashuvi hamda investitsion holatni tahlil qilish, loyihalarni ko'p mezonli saralash va muvozanatli hududiy portfelni shakllantirishni qamrab oluvchi uch bosqichli mexanizm taklif etildi.

Xorazm viloyatida quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: TXS investitsiyalari bo'yicha hududiy monitoring va tahlil markazini tashkil etish; loyihalarning moliyaviy ko'rsatkichlarini davlat ko'magi mavjud va mavjud bo'lmagan ssenariylarda qiyosiy baholash; subsidiyalarning muayyan qismini loyiha ishga tushirilganidan keyingi 24–36 oylik natijaviy ko'rsatkichlarga bog'lash; CR₂, HHI, mavsumiy bandlik va tumanlar ulushini hududiy rivojlanish dasturlarining baholash ko'rsatkichlariga kiritish; Ichan qal'adagi investitsiya loyihalarini saralashda madaniy merosga ta'sirni baholash (HIA), alohida umumbashariy qiymatni saqlash (OUV) va tashriflarni qabul qilish sig'imini majburiy mezon sifatida qo'llash; Xiva, Urganch va viloyat tumanlarini kompleks transport-servis paketlari orqali o'zaro bog'lash; mahalliy xaridlar ulushi, doimiy ish o'rinlari hamda xotin-qizlar va yoshlar bandligini investitsiya loyihalarining natijaviy ko'rsatkichlari sifatida baholash.

Taklif etilgan mexanizm investitsion salohiyat va amaliy natijalar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, davlat ko'magiga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish, hududiy va mavsumiy muvozanatni yaxshilash hamda madaniy va tabiiy merosni asrashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-394-son "2024–2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7223758>
2. Шамакова Н., Утешева С., Талгатова З., Алтаякова С. Инвестиции в туристическую инфраструктуру: риски и доходность. – 2025. – № 3(9). – С. 173–184.
3. Худякова Е. Б., Соколова И. Н. Пути повышения инвестиционной привлекательности региона на примере развития туризма // Социально-экономическое управление: теория и практика. – 2025. – Т. 21, № 4. – С. 47–54.
4. Варивода В. С. Роль инвестиционной политики в пространственном развитии туризма регионов Российской Федерации // Сервис в России и за рубежом. – 2025. – Т. 19, № 1. – С. 77–88.
5. Аширова О. И., Алов И. Н. Диспропорции в уровне развития туристической отрасли в регионах РФ: потенциал и стратегии развития туризма // Сервис в России и за рубежом. – 2025. – Т. 19, № 1. – С. 111–130.
6. Гайтукиев А. Т. Оценка инвестиционного потенциала Северного Кавказа // Московский экономический журнал. – 2025. – № 1. – С. 396–408.
7. Чичерова Е. Ю., Аникина Л. А., Шадская И. Г. Перспективы развития инвестиционной деятельности в индустрии туризма // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2025. – № 6. – С. 195–201.
8. Лебедева О. Е. Технологические инновации как драйвер роста инвестиций в туристскую инфраструктуру // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2025. – № 4-2. – С. 266–271.
9. Фёдорова М. Ю. и др. Развитие туризма как инструмент развития региональной экономики // Управленческий учет. – 2025. – № 6. – С. 237–242.
10. Torres I., Teruel-Serrano M. D., Viñals M. J. Spatial Distribution and Challenges in European Union Funding: A Perspective from Tourism Projects // Annals of Tourism Research Empirical Insights. – 2025. – Vol. 6, No. 2. – Article 100198. – URL: <https://www.econstor.eu/handle/10419/337854>
11. Suárez-Tostado M. L., Tegui Y., Ramón Rodríguez A. B. Public Investment and Tourism Development: Short-Term Evidence from French and Spanish Regions // Review of Regional Research. – 2026. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10037-025-00269-5>
12. Castillo D., Fuinhas J. A. Exploring the Effects of Tourism Capital Investment on Income Inequality and



- Poverty in the European Union Countries // Journal of Economic Structures. – 2025. – Vol. 14. – Article 6. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1186/s40008-025-00349-2>
13. Hyun H. Spatial Justice and Post-Development Perspectives on Community-Based Tourism: Investment Disparities and Climate-Induced Migration in Vietnam // Tourism and Hospitality. – 2025. – Vol. 6, No. 4. – Article 188. – URL: <https://www.mdpi.com/2673-5768/6/4/188>
 14. Sánchez-Bayón A., Daumann F. European Tourism Sustainability and the Tourismphobia Paradox: The Case of the Canary Islands // Sustainability. – 2025. – Vol. 17, No. 3. – Article 1125. – URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/3/1125>
 15. Guo L., Zhang J., Ma T., Ma X. Tourism as a Catalyst for Reducing Regional Disparities: An Empirical Study of the Economic Convergence Effect of Tourism // Sustainability. – 2026. – Vol. 18, No. 3. – Article 1289. – URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/18/3/1289>
 16. Salauatova D., Tleuberdinova A., Pratt S. Regional Economic Diversification through Tourism Development: The Case of Kazakhstan // Journal of Tourism & Development. – 2025. – Vol. 48. – P. 229–258. – URL: <https://proa.ua.pt/index.php/rtd/en/article/view/37711>
 17. Karimov M., Okmullaev R., Marty P., Saidmamatov O. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road // Economies. – 2025. – Vol. 13, No. 9. – Article 250. – URL: <https://www.mdpi.com/2227-7099/13/9/250>
 18. Ollanazarov B. D. Opportunities for Using Cluster Models and Innovative Approaches in Managing Investment Activity in the Field of Tourism Services: The Case of Khorezm Region // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2025. – Vol. 6, No. 4. – P. 1525–1533. – URL: <https://cajitm.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/1026>
 19. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. SIAT statistik ma'lumotlar bazasi: 2010–2025-yillar. – URL: <https://siat.stat.uz/data/864/>
 20. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Eng ko'p mehmonxona Xiva shahrida faoliyat yuritmoqda. – 2025-yil 16-oktabr. – URL: <https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/19265-eng-ko-p-mehmonxona-xiva-shahrida-faoliyat-yuritmoqda>
 21. UNESCO World Heritage Centre. Itchan Kala: Outstanding Universal Value and Management Requirements. – URL: <https://whc.unesco.org/en/list/543/>
 22. UNESCO World Heritage Committee. Decision 46 COM 7B.42: Itchan Kala. – New Delhi, 2024. – URL: <https://whc.unesco.org/en/soc/4620>
 23. UNESCO World Heritage Centre. State of Conservation Report: Itchan Kala (Uzbekistan). – Paris, 2020. – URL: <https://whc.unesco.org/document/183360>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
